

Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

2
0
2
4



No 7

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati



74-91 xalqaro daraja
ISSN: 2992-8982



Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Elektron nashr. 70 sahifa.

E'lon qilishga 2024-yil 4-iyulda ruxsat etildi.

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi

Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi

Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati

Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, t.f.d., prof., O'zR Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri

Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, i.f.d., O'zR Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri o'rinbosari

Axmedov Durbek Kudratillayevich, i.f.d., prof., O'zR Oliy Majlisi qonunchilik palatasi deputati

Axmedov Sayfullo Normatovich, i.f.n., professor, MIM akademiyasi rektori

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, i.f.d., prof., TDIU Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori

Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, i.f.d., prof., Navoiy davlat pedagogika instituti rektori

Siddiqova Sadoqat G'afforovna, p.f.f.d., (PhD), Buxoro muhandislik-texnologiya instituti rektori

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, i.f.d., prof., TDIU Hududiy ta'lim muassasalari va markazlar bo'yicha prorektor v.b.

Yuldashev Mutallib Ibragimovich, i.f.d., TDIU professori

Samadov Asqarjon Nishonovich, i.f.n., TDIU professori

Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, t.f.d., Rossiya xalqlar do'stligi universiteti professori

Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, i.f.d., prof., Xalqaro "Nordik" universiteti rektori

Axmedov Ikrom Akramovich, i.f.d., TSUE professori

Xajiye Baxtiyor Dushaboyevich, i.f.d., TDIU professori

Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, i.f.f.d., TDIU dotsenti

Utayev Uktam Choriyevich, O'zR Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari

Ochilov Farxod, O'zR Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i

Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, i.f.d., TDIU professori

Musayeva Shoirazimovna, SamDu IS instituti professori

Cham Tat Huei, (PhD) USCI universiteti professori, Malayziya

Axmedov Javohir Jamolovich, i.f.f.d., (PhD) "El-yurt umidi" jamg'armasi ijrochi direktori o'rinbosari

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, t.f.f.d., (PhD) TAQU katta o'qituvchisi

Djudi Smetana, p.f.n., Pittsburg davlat universiteti dosenti, Pittsburgh, Kansas, AQSH

Krissi Lyuis, p.f.n., Pittsburg davlat universiteti dosenti, Pittsburgh, Kansas, AQSH

Ali Konak (Али Кўнак), i.f.d., prof., Karabuk universiteti dosenti, Turkiya

Glazova Marina Viktorovna, i.f.n., "LUKOIL-Energoservis" Kompaniyasi iqtisodchisi, Moskva.

Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, i.f.f.d., (PhD) TDIU dotsenti

Sevil Piriyeva Karaman, PhD, Turkiya Anqara universiteti doktoranti

Mirzaliyev Sanjar Maxamatjon o'g'li, TDIU mustaqil tadqiqotchisi

Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Oqil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan

Abdurakhmanov Kalandar Khodjaevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan

Rae Kwon Chung, honorary professor of TSUE, Nobel laureate, South Korea,

Osman Mesten, member of the Turkish Parliament, head of the Turkey-Uzbekistan Friendship Society

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, DSc, Prof., Minister of Higher Education, Science and Innovation of the Republic of Uzbekistan

Buzrukkhanov Sarvarkhan Munavvarkhanovich, DSc, Deputy Minister of Higher Education, Science and Innovation of the Republic of Uzbekistan

Akhmedov Durbek Kudratillayevich, DSc, Prof., Deputy of the Legislative Chamber of the Oliy Majlis of the Republic of Uzbekistan

Akhmedov Sayfullo Normatovich CSc, Prof., Rector of Academy of Labor and Social Relations

Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, DSc, Prof., TSUE Vice-Rector for Scientific Affairs and Innovation

Kalonov Mukhiddin Bakhritdinovich, DSc, Prof., Rector of the Navoi State Pedagogical Institute

Siddikova Sadokat Ghaforovna, PhD, Rector of the Bukhara Institute of Engineering and Technology

Khudoykulov Sadirdin Karimovich, DSc, Prof., acting Vice-rector for regional educational institutions and centers of TSUE

Yuldashev Mutallib Ibragimovich, DSc, Prof., of TSUE

Samadov Askarjon Nishonovich, CSc, Prof., of TSUE

Slizovsky Dimitriy Yegorovich, DSc, Prof., of the People's Friendship University of Russia

Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, DSc, Prof., Rector of International "Nordic" University

Akhmedov Ikrom Akramovich, DSc, Prof., of TSUE

Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, PhD, professor of TDIU

Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja ugli, DSc, Prof., of TSUE

Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Head of the DGPO of the Republic of Uzbekistan

Ochilov Farkhod, Head of the DCEGPO of the Republic of Uzbekistan

Eshtayev Alisher Abduganievich, DSc, Prof., of TSUE

Shoira Azimovna Musaeva, professor of SamDu IS Institute

Cham Tat Huei, PhD, professor at USCI University, Malaysia

Akhmedov Javokhir Jamolovich, PhD, deputy of executive director of the "El-yurt umidi" fund

Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, PhD, Senior Lecturer at Tashkent University of Architecture and Construction

Judy Smetana CSc, Associate Professor, Pittsburgh State University, Pittsburgh, Kansas, USA

Chrissy Lewis CSc, Associate Professor, Pittsburgh State University, Pittsburgh, Kansas, USA

Ali Konak DSc, Prof., Associate Professor of Karabuk University, Turkey

Glazova Marina Viktorovna, CSc, economist at LUKOIL-Energoservis Company, Moscow.

Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, associate professor of TSUE

Sevil Piriyea Karaman, PhD, doctoral student at Ankara University, Turkey

Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, independent researcher of TSUE

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Po'latov Baxtiyor Alimovich, t.f.d., profesor

Aliyev Bekdavlat Aliyevich, f.f.d., TDIU professori

Isakov Janabay Yakubbayevich, i.f.d., TDIU professori

Xalikov Suyun Ravshanovich, i. f. n., TDAU dotsenti

Rustamov Ilhomiddin, f.f.n., Farg'ona davlat universiteti dotsenti

Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, i.f.d, TDIU dotsenti

Kamilova Iroda Xusniddinovna, i.f.f.d., TDIU dotsenti

G'afurov Doniyor Orifovich, p.f.f.d., (PhD)

Fayziyev Oybek Raximovich, i.f.f.d. (PhD), Alfraganus universiteti dotsenti

Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, i.f.f.d, TDIU dotsenti

Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, i.f.d., TMI dotsenti

Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, TDIU katta o'qituvchisi

Babayeva Zuhra Yuldashevna, TDIU mustaqil tadqiqotchisi

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi 336/3-
sonli qarori bilan ro'yxatdan
o'tkazilgan.



MUNDARIJA

Avtosanoat korxonalari marketing strategiyasini takomillashtirish yo'llari.....	16
Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, Zayniddinova Umida Djalolovna	
Mamlakat raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishda maxsus iqtisodiy zonalar omilidan foydalanish istiqbollari	26
Izbosarov Boburjon Baxriddinovich, Abdurasulov Ravshanbek Xotam o'g'li	
Mahalla institutini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning institutsional tahlili	32
Bahridinov Viqorjon Akbar o'g'li	
Mamlakatimizda pillachilik biznesini rivojlantirish orqali mahsulot ishlab chiqarish va uni qayta ishlash holatining tahlili	37
Turgunov Odilbek Maripovich	
Etnografik turizmni tashkil etishning xorij tajribasi	41
I. Axmedov	
Xizmatlar sohasining milliy iqtisodiyotdagi rolini tahlil qilishning zamonaviy yondashuvlari.....	46
Xusanov Murodjon Sunnatullayevich	
Iqtisodiy o'sish tushunchasi va uning rivojlanish tarixi	54
Maksudov Avazbek Ulug'bek o'g'li	
Ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni takomillashtirish asosida inson kapitalini rivojlantirish	59
Ubaydullaev G'ayrat Zuvaytovich	
O'zbekistonda aholi bandligini ta'minlashda oilaviy tadbirkorlikning o'rni	65
Baymanova Mavlyuda Djurayevna	
The Effect of Students' Financial Status on Academic Performance in Uzbekistan	70
Alimov Damirjon Odilovich	
Qoraqalpog'iston Respublikasida xizmat ko'rsatish sohasida tadbirkorlik faoliyatining o'rni.....	76
Jusupova Anjim Tansiqbaevna	
Insurance Mechanisms in Foreign Trade: Mitigating Risk and Facilitating Global Commerce	82
Sohibjamol Abirkulova	
Nodavlat umumiy o'rta ta'lim maktabning faoliyati samaradorligini aniqlashda innovatsion usullardan foydalanish.....	87
Ustadjalilova Xurshida Aliyevna	
Qishloq xo'jaligi korxonalarida asosiy vositalar hisobi va auditi bo'yicha xorijiy tajribalar va ulardan respublikamizda foydalanish imkoniyatlari	92
Xojimurodov Zuxriddin Shukurullo o'g'li	
O'zbekiston Respublikasi budjetining shakllanishida egri soliqlarni undirishning fiskal samaradorligi	97
Abdulxayeva Shahnoza Muxammadiyevna	
Mamlakat sanoatining barqaror rivojlanishida energosamaradorlikning roli	104
J. J. Yaxshilikov	
Сравнительный анализ состояния сферы услуг в регионах Андижанской области	109
Мусабоев Рустам Алижонович	
Hududlarda aholi bandligini oshirish va kambag'allikni qisqartirishda ishlab chiqarish sanoatining o'rni (Qashqadaryo viloyati misolida).....	114
Hamdamov Shahzod Ilhom o'g'li, Baxronov Baxriddin Najmiddinovich	



Banklarning qimmatli qogʻozlar bozoridaqi faoliyatini takomilashtirish yoʻllari.....	118
Ermatov Utkirbek Baxodirjonovich	
Развитие цифровой экономики в Узбекистане, ее плюсы и минусы	122
Раупова Мухлисахон Ибрахимжон кизи, Мамбетова Мадина Зоҳид кизи, Алижоновa Малика Алижон кизи, Хакимова Нигора Бахтиёрoвнa	
Investment Management is an Important Factor of Economic Development.....	127
Yuldasheva G. A., Ziyayev Dilshodjon	
Oʻzbekistonda moliyaviy texnologiyalar sanoatining rivojlanish istiqbollari.....	130
Rustamov Jasurbek Ravshanbek oʻgʻli	



MAMLAKAT SANOATINING BARQAROR RIVOJLANISHIDA ENERGOSAMARADORLIKNING ROLI

J. J. Yaxshilikov

PhD, TDIU Samarqand filiali, Riqamli iqtisodiyot va ahborot
texnologiyalari kafedrası dotsenti

Annotatsiya: Maqolada zamonaviy dunyoda sanoat tarmoqlarining barqaror rivojlanishining asosiy omillari ko'rib chiqilgan. Tahlil orqali sanoatni rivojlantirishda ekologik, ijtimoiy va iqtisodiy omillarni hisobga olish zarurligi asoslab berilgan. Sanoat tarmoqlarida samaradorlik va barqarorlikni oshirish bo'yicha strategiyalar yoritilgan. Xulosa qilib aytganda, maqolada innovatsiyalar va barqaror sanoat rivojlanishini ta'minlash uchun muvozanatli boshqaruv yondashuvining ahamiyati ta'kidlangan.

Kalit so'zlar: ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish, sanoat, investitsiya, samaradorlik, energosamaradorlik, investitsion jozibadorlik.

Abstract: The main factors of sustainable development of industries in the modern world are considered in the article. The need to take into account environmental, social and economic factors in the development of the industry is justified through the analysis. Strategies for increasing efficiency and sustainability in industrial sectors are considered. In conclusion, the article emphasizes the importance of a balanced management approach to ensure innovation and sustainable industrial development.

Key words: socio-economic development, industry, investment, efficiency, energy efficiency, investment attractiveness.

Аннотация: В статье рассмотрены основные факторы устойчивого развития отраслей в современном мире. помощь анализа обоснована необходимость учета экологических, социальных и экономических факторов при развитии отрасли. Рассмотрены стратегии повышения эффективности и устойчивости в промышленных секторах. В заключение в статье подчеркивается важность сбалансированного управленческого подхода для обеспечения с инноваций и устойчивого промышленного развития.

Ключевые слова: социально-экономическое развитие, промышленность, инвестиции, эффективность, энергоэффективность, инвестиционная привлекательность.

KIRISH

Sanoat ish o'rinlari, mahsulot va xizmatlar ishlab chiqarish va innovatsiyalarni rivojlantirish orqali mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida muhim rol o'ynaydi. Biroq sanoatning barqaror rivojlanishi, o'z navbatida, atrof-muhit, ijtimoiy va iqtisodiy jihatlarini o'z ichiga olgan ko'plab omillarni hisobga olishni talab qiladi. Sanoat respublikamiz iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridan biri hisoblanadi. Sanoat tarmog'ining rivojlanishi milliy iqtisodiyotning barqaror sur'atlar bilan rivojlanishiga olib keladi.

Rivojlanayotgan va yangi industrial davlatlar tajribalarining ko'rsatishicha, mazkur davlatlardagi iqtisodiy muvaffaqiyatlarning aksariyati sanoatda, ayniqsa, qayta ishlovchi sanoatda chuqur tuzilmaviy o'zgarishlar bilan izohlanadi. Bugungi kunda sanoat tarmoqlarining barqaror rivojlanishi masalasi muhim ahamiyat kasb etib kelmoqda. Barqaror rivojlanishda sanoatga asosiy va ta'sodifli ta'sir etuvchi omillarning tahlili orqali samaradorlik ko'rsatgichlarini oshirish strategiyalarini ishlab chiqarish masalasi ahamiyati oshib bormoqda.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Sanoatni rivojlantirishning dolzarbligi va iqtisodiyotni takomillashtirishda tutgan o'rnining nihoyat darajada kengligi bilan doimiy ravishda tadqiqotchi olimlarning diqqat markazida bo'lgan. Xususan, mavzu yuzasidan xorijlik olimlardan Yu.Rodionov, R.S.Porter, D. Deveryuks, B.Roberts, R.N. Nureyevlar ilmiy yangiliklar yaratgan bo'lsalar, mahalliy olimlardan Yo.A.Abdullayev, A.Abdurhamidov, U.Muxitdinov, A.A.Ortikov, X.Ishbutayeva, Sh.Nizomova, E.X.Maxmudov, M.Isoqovlar bir qator ilmiy tadqiqotlar olib borishga muvaffaq bo'lishgan.




Xususan, A.Artikov “O‘zbekistonda sanoatni rivojlantirishning qator imkoniyatlari, geografik va iqtisodiy omillari”ga, M.P.Narziqulov “Sanoatni rivojlanish strategiyasini ishlab chiqish jarayonida asosiy e’tibor tarkibiy o‘zgarishlarga qaratilganligi”ga, E.X. Maxmudov “Sanoat tarmoqlari rivojlanishiga sharoit yaratishning strategik yo‘nalishlari birinchi navbatda budjet, soliq, pul kredit, narx va valyuta siyosati kabi vositalarni qamrab olgan qulay makroiqtisodiy muhitni yaratish”ga, bog‘liqliklariga alohida to‘xtalib o‘tishgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot jarayoni davomida sanoatning barqaror rivojlanishini tahlil qilinishi asosida iqtisodiy tahlil va sintez, induksiya va deduksiya, statistik guruhlash, ekspert baholash, ilmiy abstraksiyalash va boshqa usullardan keng foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Ma’lumki, mamlakat sanoati faoliyati rivojlanishiga ta’sir etuvchi omillar sifatida iqtisodiy siyosat, mavjud infratuzilma, ishchi kuchi potentsiali, innovatsiya va texnologiyalar, mavjud bozorlarga chiqish imkoniyatlari, ekologik faktorlar, huquqiy tizim va institutlar, siyosiy barqarorlik, globalizatsiya va ta’lim ko‘rsatgichlari bilan izohlanadi. O‘z navbatida, ushbu omillarning aksiriyati mamlakatning investitsion jozibadorligiga ta’sir etadi.




1-rasm: Sanoat rivojlanishiga omillar ta’siri

Manba: Muallif ishlanmasi

Shularni hisobga olgan holda sanoatning barqaror rivojlanishida asosiy yetaklovchi omillar sifatida biz innovatsiya va sanoatda investitsion jozibadorlik omillarni qarashimiz mumkin ekan. Sanoatda investitsion jozibadorlikka ta’sir etuvchi asosiy ko‘rsatgichlar biri sifatida energiya barqarorlidir. Jahon bankining “Daromad, mehnat va sarmoya” hisobotida ishonchli yenergetika infratuzilmasiga ega davlatlar ko‘proq sarmoya jalb yetishi va iqtisodiy o‘sinh sur’atlari yuqori ekanligi ta’kidlangan.

McKinsey & Company tadqiqotida yirik investorlarning 92 foizi yenergiya barqarorligini investitsiya qarorlaridagi asosiy omil, deb bilishini qayd etadi. Harvard Business Review jurnali yenergiya beqarorligi sanoat investitsiyalarini 25% yoki undan ko‘proq qisqartirishi mumkinligi haqidagi tadqiqotni keltirilgan. Bugungi kunda mamlakatimizda ham yenergetika infratuzilmasi modernizatsiyasi sanoat tarmoqlari istiqboli uchun ahamiyati oshib bormoqda. Bu, o‘z navbatida, mavjud tizimdan samarali foydalanish hamda ishlab chiqarishda energiya samaradorligi o‘zgarishi tendensiyalarini tahlil qilish ahamiyatlidir.

Respublikamiz kesimi bo‘yicha elektr energiyasi ta’minoti 2001-yilda 48454,8 mnl. kVt soat bo‘lgan bo‘lsa, 2022-yilga kelib 1,58 martaga oshib 76543,3 mnl. kVt soat ga to‘g‘ri kelmoqda. Sanoat tarmoqlarining elektr energiya istemoli 2001-yilda 18791,2 mnl. kVt soat bo‘lgan bo‘lsa, 2022-yilda 18890,3 mnl. kVt soat, qishloq xo‘jaligida 2001-yilda 14753,9 mnl. kVt soatdan 2022-yilda 9644,5 mnl. kVt soat, aholiga istemoliga 2001-yilda 4411,3 mnl. kVt soat, 2022-yilda esa 17470,8 mnl. kVt soat to‘g‘ri kelganini kuzatishimiz mumkin.




2-rasm: Tarmoqlar bo'yicha elektr energiyasi istemoli dinamikasi

Manba: O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

Yuqoridagi elektr energiyasi sarfi dinamikasidan ma'lumki, 2000-yildan 2023-yillar davomida sanoat tarmoqlari elektr iste'moli ko'rsatgichi o'zgarishi deyarli bo'lmagan. Sanoat mahsulotlarning ishlab chiqarishi fizik hajmining o'zgari 2000-yildan 2022-yilgacha 14 % o'sishni tashkil etadi. Buni esa, ishlab chiqarishda energiya samaradorligi oshishi bilan izoxlash mumkin.

Albatta, dastlabki xulosalar chiqarish uchun sanoat tarmoqlarining energiya samaradorligi va energiya resurslari bilan ta'minlay olish salohiyati ko'rsatgichlari tahlili ahamiyatlidir. Energiya istemoli samaradorligini baholash ko'plab ko'rsatgichlarga bog'liq, sanoat tarmoqlardagi energiya samaradorligi ko'rsatgichlari davlatlar o'rtasidagi solishtiruv asosida xulosalash imkoni yaratiladi.




3-rasm: Ishlab chiqarish sanoatida elektr energiyasi istemoli samaradorligi.

Manba: Muallif tomonidan tuzilgan.



Tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, O'zbekiston, Rossiya va Qozog'iston sanoatida elektr energiyasi samaradorligi solishtirilganda O'zbekiston Rossiyaga nisban 1.39 martaga pastligi va Qozog'istonga nisbatan 3.19 marotaba pasligini ko'rish mumkin. Bu esa, O'zbekiston bo'yicha ishlab chiqarish sanoati tarmoqlarida elektr sarfi samaradorligi nisbatan pasligi va uni sub tarmoqlar bo'yicha tahlil qilish orqali xulosa berish maqsadga muvofiqdir.

O'zbekiston Respublikasi statistika qo'mitasi rasmiy ma'lumoti asosida shuni aytish mumkinki, nometal mineral mahsulotlar ishlab chiqarish, tog'-kon sanoati bilan bog'liq va kimyo mahsulotlarini ishlab chiqarish tarmoqlari energiya samaradorlik yukori bo'lishini ko'rishimiz mumkin.



4-rasm: Ishlab chiqarish tarmoqlarida enegosamaradorlik

Manba: O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

Lekin, ushbu subtarmoqlar bo'yicha energiya samaradorlik ko'rsatgichlarni o'zaro taqqoslash noo'rindir. Demak, tarmoqlar bo'yicha energiya samaradorlikka baho berish rivojlangan sanoatlashgan davlatlar enegiyasamaradorlik ko'rsatgichlari taqqoslash maqsadga muvofiqdir.

Respublikami sanoat tarmoqlaridagi elektr energiya samaradorligi dinamikasi asosida ishlab chiqilgan quyidagi trend modeli asosida tahlil qilinganda,

$$ES = 467485 - 465,955 \cdot T + 0.116107 \cdot T^2$$


$$F(2, 19) = 158,25 \quad R^2 = 0,943 \quad (p_1, p_2, p_3 < 0,0001)$$

sanoat tarmoqlaridagi elektr energiya samaradorligi 2025-yil kelib 2022-yilga nisbatan 1.27 marta 2026-yilda esa 1.39 marta oshishi kutilmoqda.

Albatta, bunda, kutilayotgan elektro energiya samaradorligi ko'rsatgichlarini yuqorilashi va uni yanada yaxshilashda mintaqaviy iste'mol dinamikasi va uning tendensiyasini o'rganish maqsadga muvofiq bo'ladi. Respublikamizda bugungi kunda yuqori elektr energiya iste'moli Navoiy, Toshkent, Qashqadaryo viloyatlari va



Toshkent shahriga to'g'ri kelishi bilan bir qatorda ushbu mintaqalarda barqaror elektr energiyasi istemoli oshib borish tendensiyani ko'rsatmoqda.



5-rasm: Hududlar kesimida elektr yenggiya istemoli

Manba: O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

Nisbatan past iste'mol ko'rsatgichi to'g'ri keladigan hududlar Jizzah, Sirdaryo viloyatlarida energiya iste'moli tendensiyasi deyarli o'zgarishsiz qolmoqda.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Shuni ta'kidlash kerakki, mamlakatda sanoat taraqqiyoti ko'plab omillarga bog'liq bo'lib bu omillarning o'zaro ta'siri har bir mamlakat uchun uning resurslari va yehtiyojlaridan kelib chiqib o'ziga xos bo'lishi mumkin. Samarali boshqaruv va bu omillarga mutanosib yondashish sanoat va umuman iqtisodiyotning barqaror rivojlanishiga xizmat qilishi mumkin. Bu borada nafaqat innovatsion boshqaruv va ishlab chiqarish texnologiyalarini joriy etish, balki mavjud infratuzilmani modernizatsiya qilish masalasi orqali investitsion jozibadorlikni oshirish mumkin. Bundan tashqari, tarmoqlar kesimida energiya samaradorlik oshirishda ma'nan eskirgan mavjud texnologiyalarni energiya samaradorligi yuqori bo'lgan texnologiyalar bilan almashtirishni davlat tomonida rag'barlantirish va yuqori energiya samaradorligiga ega tovar mahsulotlarini ishlab chiqarish texnologiyalarini subsidiyalash va import qilishda boj yengilliklarini yaratish orqali erishish mumkin. Bundan tashqari, uzoq mumdatli strategiya sifatida energiya samaradorligi yuqori texnologiyalar sohasida ilmiy-tadqiqot ishlarini qo'llab-quvvatlash maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Asiedu, E. On the Determinants of Foreign Direct Investment to Developing Countries: Is Africa Different? World Development, 30(1), 107-119. (2002).
2. Djankov, S., Freund, C., & Pham, C. S. Trading on Time. Review of Economics and Statistics, 92(1), 166-173. (2010).
3. Lim, E. G., & Saborowski, C. Aggregate Profitability and Net Capital Flows: The Role of US Policies. Journal of International Money and Finance, 31(6), 1397-1419. (2012).
4. Hall, B. H., & Lerner, J. The Financing of R&D and Innovation. Handbook of the Economics of Innovation, 1, 609-639. (2010).
5. Mahmudov M.F. O'zbekistonning sanoat ishlab chiqarish salohiyatini baholash // "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali, 1/2019 (№ 00039), 1-9 b.
6. J.Yaxshilikov. Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishda sanoatning roli va uni yanada rivojlantirish yo'llari. "Xalqaro moliya va hisob" ilmiy jurnali. №6, dekabr, 2021 yil. ISSN: 2181-1016.
7. Показатели оказатели энергоэффективности: основы формирования политики. OECD/IEA, 2014 International Energy Agency.
8. <https://data.worldbank.org>.
9. <https://siat.stat.uz/>

Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>

Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Xondamir Ismoilov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2024. № 7

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77)

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77) telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.

